

**Saida Komilova**  
**Far.D.U talabasi**

---

## **MA'NAVIYATNING MUSTAHKAM QO'RG'ONI**

**Annotatsiya:** Mazkur maqola muallifning adabiyot haqida, uning jamiyat hayotidagi o'z yo'lidagi ahamiyati haqidagi shaxsiy qarashlarini ifodalaydi. Xalqning ma'naviy yuksalishida adabiyotning ulkan hissasi borligini, kitobxonlik madaniyati va kitob mutolaasining inson ruhiyatiga ijobiy ta'sirini tarixiy faktlar hamda jahon adabiyoti namunalarini orqali ifodalashga harakat qilingan.

**Kalit so'zlar:** Adabiyot, ma'naviy yuksalish, kitobxonlik madaniyati, jadid adabiyoti, milliy san'at, Sandro, mumtoz san'at va dabiyot, "Qiyomat" romani, Muhammad Rahimxon II (Feruz).

**Annotatsion:** This article expresses the personal views of the author about literature, its place and importance in the life of society. An attempt was made to express the great contribution of literature to the spiritual growth of the people, the positive influence of reading culture and book reading on the human psyche through historical facts and examples of world literature.

**Key words:** literature, spiritual growth, reading culture, modern literature, national art, Sandro, classical art and nature, the novel "Doomsday", Muhammad Rahim Khan II (Feruz).

**Аннотация:** Предпринята попытка через исторические факты и примеры мировой литературы выразить большой вклад литературы в духовное развитие народа, положительное влияние культуры чтения и чтения книг на психику человека.

**Ключевые слова:** литература, духовный рост, культура чтения, современная литература, национальное искусство, Сандро, классическое искусство и природа, роман "Судный день", Мухаммад Рахим Хан II (Феруз).

---

Taraqqiyot tegirmoni har qachongidan ham shiddat bilan aylanib, tarix g'ildiragi o'z yo'lidagi sun'iy to'siqlarni bosib-yanchib borayotgan bugungi kunda milliy o'zlikni asrab qolish ulkan hayotiy masalaga aylanib qolmoqda. Jadid adabiyoti yorqin yulduzi Cho'lponning "Adabiyot yashasa millat yashar!"<sup>1</sup>, - degan falsafasining bugungi kun uchun ham ahamiyati beqiyosdir. Adabiyotni millat mavjudligiga nima dahli bor deydiganlar ham yo'q emas, yoki bizda ham adabiyot mavjud, lekin uning taraqqiyotga ta'siri kam deydiganlar ham bor. Bizning tasavvurimizcha Cho'lponning adabiyot haqidagi fikri g'oyat chuqur va har tomonlama keng mazmunga ega. Chunki, chinakam adabiyot bu kitoblarni chop etish, yoki ularning savdosini yo'lga qo'yish degani emas. Chinakam adabiyot aksar aholisi kitobxon bo'lgan o'lkada, shoir tabiat xalqning qalbida, o'z so'ziga mas'ul shoir va adiblar qalamida yashaydi. Chinakam adabiyot dovulli, xatarli, bepayon ummonga o'xshaydi. Soxta adabiyotni esa, men, akvariumga qiyoslagim keladi. Akvariumda ham hayot bor: ma'lum hajmdagi suv, toshchalar, o'simliklar va turli xil baliqchalar mavjud. Undagi hayotning mavjudligi esa baliqlarning harakati bilandir.

---

<sup>1</sup> O.Sharafuddinov "Adabiyot nadir?" – Toshkent. Cho'lpon nashriyoti, 1994

Akvarium va undagi baliqchalarni kuzatish mumkin. Lekin, buni chinakam ummonni o'z ko'zi bilan ko'rgan inson his etadigan zavq-shavqqa qiyoslab bo'lmaydi.

Adabiyotning chinakam mavjudligi, xalqchilligi kitobxonlik madaniyatiga, kitoblarning saviyasiga ham ko'p jihatdan bog'liqdir. Yaxshi asar har doim ham yaratilavermaganidek, hamma kitobxonni ham yuksak saviyalik deb bo'lmaydi. Biz, kitobxonlar ommasi, shoir va adiblarni alqab, ularga hamd-u sano aytish uchungina kitob varaqlashimiz also to'g'ri emas. Chunki, har qanday adabiy asar ham kamchilik va nuqsonlardan holi bo'lmaydi. Kitobxon ma'lum ma'noda adabiyotshunos bo'lmog'i, o'zi o'qigan asar haqida jiddiy fikrlamog'i va o'z fikrlari bilan adiblarni "uyg'otmog'i", ularni so'na chaqqan otdek seskantirmog'i lozim. Ana shundagina chinakam adabiyot va yuqori saviyali kitobxonlar ommasi shakllanadi. Kitobxonlik maktabdan emas, oiladan boshlanmog'i, kitob o'qish esa ma'naviy burchga aylanmog'i lozim deb hisoblaymiz

XIX asrning so'ngi choragida O'rta Osiyo davlatlari o'sha davrning ulkan imperiyalaridan biri bo'lgan podshoh Rossiyasi tomonidan bosib olingan edi. Xorazmning so'nggi hukmdorlaridan biri Muhammad Rahimxon II (Feruz) 1882-yili Xorazm mumtoz maqomlarini buzib kuylagan san'atkorlarni jazolash to'g'risida farmon chiqargan. Men ushbu farmoni oliyning mazmun mohiyatini ilk marta tanishganimda unchalik tushunmagan edim. Keyinchalik buyuk adib Chingiz Aytmatovning "Qiyomat" romanini o'qib qoldim. Mazkur asarning qaysi bir sahifasida "Oltovlon va yettinchi" nomli qayg'uli bir hikoya bayon etilgan. Hikoyada Sandro ismli yosh gruzin yigitning fuqarolar urushi davridagi jasorati bayon etilgan. Yosh Sovet davlatiga sidqidildan xizmat qilayotgan ushbu josus yigit, sovetlarga qarshi kurashayotgan vatandoshlari bilan Gurjiston chegaralarigacha qochib borib, so'nggi vidolashuv tunida qalin o'rmon yoqasida mayxo'rlik qilishadi va gruzincha mungli bir qo'shiqni ijro etishadi. Qo'shiq va may ta'sirida sarxush bo'lgan olti nafar qochoqlar xushyorlikni yo'qotishadi va josus yigit ularni sovuqqonlik bilan otib tashlaydi. Lekin, Sandro ham o'sha xalqning bolasi, u ham o'sha qo'shiqni kuylab ulg'ayganku, shuning uchun olti nafar qurbonning yoniga o'z joniga qasd qilgan yettinchi jasad ham qo'shiladi. Ya'ni, vijdon azobi Sandroni ana shunday mudhish qarorga undagan edi.<sup>2</sup>

Kimdir yuqoridagi Xorazm hukmdorining farmonini o'qib, yurt boshqa bir o'lkaga qaram bo'lib turgan bir paytda qo'shiqqa balo bormi, undan ko'ra muhimroq ishlar yo'qmidi deyish mumkin. Lekin adabiyot va san'atni g'oyat teran tushungan xon hazratlari yaxshi bilganki, xalq siyosiy qaramlikdan bir kun kelib qutilar, lekin milliy til va adabiyotni, san'atni boy bergan xalq hech qachon ma'naviy qullikdan, manqurtlikdan qutula olmaydi.

Bizning mumtoz san'atimiz va adabiyotimiz xalqimizni buyuk ma'naviy qo'rg'oni bo'lib, bu qo'rg'onning mustahkamligi uchun qayg'urish, uni muhofaza etish har birimizning vijdon burchimizdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ch.Aytmatov "Qiyomat" – Toshkent. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022.
2. O.Sharafuddinov "Adabiyot nadir?" – Toshkent. Cho'lpon nashriyoti, 1994.

<sup>2</sup> Ch.Aytmatov "Qiyomat" – Toshkent. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022